UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	838
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	842
G'anibayev Iloxomjon Shokiraliyevich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI	847
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQRISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'lishDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojiakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	



REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI

Savurbayev Zafar Abdumuminovich

“Hamkorbank” ATB Yunusobod universal bank xizmatlari ofisi

Rahbariyat boshqaruvchisi

e-mail: z.savurbaev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola real sektor tarmoqlarini kreditlash jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalarini kompleks tarzda tahlil qiladi. Maqola kreditlashning iqtisodiy ahamiyati, real sektorning rivojlanishidagi roli hamda moliyaviy barqarorlikni shakllantirish mexanizmlari bilan bog'liq nazariy va amaliy aspektlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot doirasida moliyaviy barqarorlikka erishish uchun tijorat banklari va moliyaviy institutlar tomonidan qo'llaniladigan strategiyalar, risklarni boshqarish usullari, tarmoq va korxona darajasidagi kreditlash mexanizmlari hamda ularning samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada real sektorni moliyalashtirishda mavjud muammolar va ularning barqarorlikka ta'siri tavsiflanadi, shu bilan birga bank-kredit tizimi, moliyaviy monitoring va korporativ boshqaruv amaliyotlari orqali kreditlash jarayonini optimallashtirish usullari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: real sektor, kreditlash, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, rentabellik, moliyaviy monitoring, kredit siyosati, likvidlik.

Abstract. This article comprehensively analyzes the issues of ensuring financial stability in the process of lending to real sector sectors. The article includes theoretical and practical aspects related to the economic significance of lending, its role in the development of the real sector, and the mechanisms for forming financial stability. The research covers the strategies used by commercial banks and financial institutions to achieve financial stability, risk management methods, lending mechanisms at the sector and enterprise levels, and ways to improve their efficiency. The article describes the existing problems in financing the real sector and their impact on stability, and also proposes methods for optimizing the lending process through banking and credit systems, financial monitoring, and corporate governance practices.

Key words: real sector, lending, financial stability, risk management, profitability, financial monitoring, credit policy, liquidity.

Аннотация. В статье комплексно анализируются вопросы обеспечения финансовой устойчивости при кредитовании реального сектора экономики. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты, связанные с экономическим значением кредитования, его ролью в развитии реального сектора экономики и механизмами формирования финансовой устойчивости. В статье рассматриваются стратегии, используемые коммерческими банками и финансовыми институтами для достижения финансовой устойчивости, методы управления рисками, механизмы кредитования на уровне отраслей и предприятий, а также пути повышения их эффективности. В статье рассматриваются существующие проблемы финансирования реального сектора экономики и их влияние на устойчивость, а также предлагаются методы оптимизации процесса кредитования через банковско-кредитную систему, финансовый мониторинг и практику корпоративного управления.

Ключевые слова: реальный сектор экономики, кредитование, финансовая устойчивость, управление рисками, рентабельность, финансовый мониторинг, кредитная политика, ликвидность.

KIRISH

Real sektor iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va infratuzilma sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ishchi o'rinlarini yaratishda beqiyos ahamiyatga ega. Real sektor tarmoqlarining samarali faoliyati esa moliyaviy resurslarning yetarli darajada va o'z vaqtida ta'minlanishiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda kreditlash tizimi muhim rol o'ynaydi [1]. Moliyaviy barqarorlikni saqlash esa nafaqat alohida korxonalarning moliyaviy sog'lomligini, balki butun iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sishini kafolatlaydi. Shu nuqtai nazardan, real sektorni kreditlash



jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari va strategiyalari ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb mavzular qatoriga kiradi.

Kreditlashning real sektor tarmoqlaridagi o'rni ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, korxonalarga ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va texnologik yangilanishlarni amalga oshirish imkonini beradi; ikkinchidan, moliyaviy risklarni boshqarish va korxonalarning qarz majburiyatlarini o'z vaqtida qoplash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi [2]. Shu bois, real sektorni moliyalashtirish tizimi samaradorligi nafaqat banklar va moliyaviy institutlarning faoliyati bilan, balki davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, korporativ boshqaruv tizimi va risklarni baholash mexanizmlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda kreditlash jarayonida uchraydigan asosiy muammolar qatoriga moliyaviy resurslarning cheklanganligi, korxonalarning moliyaviy holatini baholashdagi noaniqliklar, qarzlarni qaytarish riskining oshishi va iqtisodiy o'zgaruvchanlik kiradi. Shu sababli, real sektor tarmoqlarini kreditlashda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun innovatsion moliyaviy vositalar, kredit monitoringi tizimi, risklarni diversifikatsiya qilish va korxona darajasida moliyaviy nazorat mexanizmlari joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan shartlardan biridir. Kreditlash tizimi real sektor tarmoqlarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ammo bu jarayon o'zida bir qator risklarni, ayniqsa iqtisodiy tebranishlar, yuqori foiz stavkalari va sektoral xatarlarni jamlaydi. Shu bois, real sektor tarmoqlarini kreditlashda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash muammosi amaliy va nazariy jihatdan dolzarb masala bo'lib qoladi. Bu adabiyotlar sharhida real sektor tarmoqlarini kreditlashda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasiga oid mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar kreditlash jarayonidagi risklar, ehtiyotkorlik siyosatlarini, sektorlarning moliyaviy holatini baholash, shuningdek, kredit tizimining barqarorligini saqlashga qaratilgan usullarni tahlil qiladi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan, J. Stiglitz va A. Weiss o'zlarining "Credit rationing in markets with imperfect information" nomli mashhur ishida, kredit bozorlarida ma'lumot asimmetriyasi va moral hazard muammolarini tahlil qilib, real sektorni kreditlashda yuzaga keladigan risklarni yoritgan [3]. Ular kredit bozorlarida foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumot asimmetriyasi mavjud bo'lsa, banklar faqatgina yuqori xavfga ega bo'lgan mijozlarga kredit beradi deb ta'kidlaydilar. Bu holatni engish uchun banklarning ehtiyotkorlik siyosatlariga tayanish zarurligini ko'rsatadilar; D. Diamond kredit bozorlaridagi tanlov risklarini tahlil qilib, banklarning qaror qabul qilish mexanizmlarini, ayniqsa, yuqori riskli sektorlarga kredit ajratishda qanday ehtiyotkorlik choralarini ko'rishni kerakligini ko'rsatadi [4]. U, banklar, kreditlashda yuqori xavfli sektorlar bilan ishlashdan oldin, risklarni baholash va tartibga soluvchi mexanizmlar bilan samarali ishlashlari kerakligini ta'kidlaydi; H. Minsky o'zining "Financial Instability Hypothesis" asarida kreditlash jarayonining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini, xususan kredit risklarini boshqarishdagi xatolarni tahlil qiladi [5]. U, kredit bozorlarida risklarni boshqarishda barqarorlikni ta'minlash uchun ehtiyotkorlik va tarmoqning barcha qatlamlarida xatarlarni monitoring qilish zarurligini ta'kidlaydi. Minsky, shuningdek, iqtisodiy o'sish va kreditlash jarayonidagi xavf-xatarlarni muvozanatlash orqali moliyaviy barqarorlikni saqlashni maqsad qilib qo'yadi; M. Gertler o'zining "Financial structure and industrial performance" tadqiqotida, moliyaviy tizimning barqarorligi va real sektor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiladi [6]. U, banklarning kreditlash jarayonidagi ishtirokini va ular tomonidan qo'llaniladigan ehtiyotkorlik siyosatlarini ko'rib chiqadi. Gertler, shuningdek, kreditlashda yuqori xatarli sektorlarni tahlil qilish va ularning moliyaviy holatini kuzatish orqali barqarorlikni ta'minlashga erishish mumkinligini ta'kidlaydi; S. Bernanke o'zining "The great moderation" asarida, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda moliyaviy tizimlarning ishonchiligi va kreditlash jarayonidagi risklarni qanday boshqarish zarurligini tahlil qiladi [7]. Bernanke kreditlash tizimining ijobiy ishlashi uchun barqaror iqtisodiy sharoitlarning zarurligini ta'kidlab, davlat va moliyaviy institutlarning hamkorlikda ishlashini ta'minlashni muhim deb hisoblaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan R. Sayfullayevning ishlari mamlakatimizda kreditlash va moliyaviy barqarorlikka doir ko'plab tahlillarni o'z ichiga oladi [8]. U real sektorni kreditlashda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muvozanatni saqlash, shuningdek, bank tizimining ishonchiligi va barqarorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqdi. Sayfullayev o'zining "Bank tizimi va iqtisodiy barqarorlik" nomli tadqiqotida, kredit tizimidagi risklarni aniqlash va ularni boshqarish usullarini keng yoritgan. U real sektorni kreditlashda yuzaga keladigan xatarlar va banklar tomonidan qo'llaniladigan ehtiyotkorlik mexanizmlarini tahlil qilib, yuqori riskli sektorlarni kreditlashda ehtiyotkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlagan; S. Shamsiev o'z tadqiqotlarida, O'zbekistonning real sektorini kreditlashda yuzaga keladigan xatarlarni baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqqan [9]. U kreditlashda xatarlarni baholashda ehtiyotkorlik va risklarni diversifikatsiya qilishning zarurligini ta'kidlaydi. Shamsiev kreditlash jarayonida banklar tomonidan xavflarni kamaytirish uchun ko'plab xavfsizlik choralarini ko'rishni, shuningdek, barqaror investitsiya muhiti yaratishni



zarur deb hisoblaydi; B. Muhammadiev o'zining tadqiqotida, kreditlash jarayonining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini chuqur tahlil qiladi va banklar uchun samarali kredit strategiyalarini ishlab chiqadi [10]. Muhammadiev bank tizimining barqarorligi uchun kredit risklarini baholashda yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek, kredit bozorida tarmoqning xavf-xatarlarini yanada kengaytirish kerakligini ta'kidlaydi.

Mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun kreditlash jarayonida tizimli yondashuv zarur. Banklarning qarz risklarini baholash va boshqarish metodologiyasi, tarmoq bo'yicha diversifikatsiya strategiyalari, moliyaviy monitoring va nazorat mexanizmlari – bularning barchasi real sektor tarmoqlarining barqaror rivojlanishi uchun muhim vosita hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda real sektor tarmoqlarini kreditlashda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llarini aniqlash maqsadida analitik, statistic, empirik yondashuv metodlari qo'llanildi. Buning uchun turli moliyaviy ko'rsatkichlar, shu jumladan, kredit portfeli diversifikatsiyasi, aktiv va passiv balans, kreditlarning qaytarishlilik ko'rsatkichi va boshqa iqtisodiy indikatorlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Real sektor tarmoqlarini kreditlash jarayoni iqtisodiy o'sish, investitsiya faoliyati va moliyaviy barqarorlikni birlashtiruvchi murakkab tizim sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kredit resurslarining samarali taqsimlanishi nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi, balki korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, ularning qarz majburiyatlarini vaqtida qoplash va likvidlikni ta'minlash imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, real sektorni moliyalashtirishning samaradorligi bir qator makroiqtisodiy va mikroiktisodiy omillarga bog'liq bo'lib, ularni tizimli tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Birinci navbatda, real sektor tarmoqlarini kreditlashdagi asosiy qiyinchilik – moliyaviy risklarni boshqarishning yetarli darajada emasligi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun banklar tomonidan kredit risklarini baholash mexanizmlari, qarz oluvchilarning moliyaviy holati va bozor sharoitlari doimiy monitoring qilinishi zarur [11]. Shu bilan birga, korxonalarning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish, kapital va aktivlarning strukturasini baholash, likvidlik ko'rsatkichlarini aniqlash orqali qarzlarni qoplash qobiliyati aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreditlashning samaradorligi bevosita korxonalarning moliyaviy sog'lomligi va banklar tomonidan qo'llaniladigan risklarni minimallashtirish strategiyalari bilan bog'liqdir.

Ikkinchi muhim jihat – kreditlash mexanizmlarining turli shakllarini qo'llash orqali real sektor tarmoqlarining diversifikatsiyasi. Masalan, ishlab chiqarish, transport, energetika va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida kreditlashning turli instrumentlari qo'llanilishi samaradorlikni oshiradi. An'anaviy bank kreditlari bilan bir qatorda, lizing, faktoring, eksportni moliyalashtirish va davlat kafolatli kreditlar kabi innovatsion moliyaviy vositalar qo'llanilishi korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi [12]. Shu bilan birga, kredit portfelinin diversifikatsiyasi banklar uchun moliyaviy risklarni kamaytirish va kredit resurslarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Uchinchi jihat – kreditlash jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda normativ-huquqiy va institutsional mexanizmlarning roli. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bank tizimi va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik, kreditlash standartlari, qarzlarni boshqarish tartiblari va moliyaviy monitoring mexanizmlari rivojlangan mamlakatlarda kreditlashning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, banklar o'z faoliyatida kredit tahlili, qarzlarni qaytarish monitoringi va moliyaviy barqarorlikni baholash bo'yicha ichki strategiyalarni ishlab chiqishi lozim.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, real sektorni kreditlashning samaradorligini oshirish uchun bir necha asosiy tamoyillarni joriy etish muhim:

- moliyaviy risklarni baholash va diversifikatsiya qilish – kredit portfelinin tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasi, qarz oluvchilarni moliyaviy tahlil qilish va aktivlarni baholash;

- innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish – lizing, faktoring, davlat kafolatli kreditlar va eksportni moliyalashtirish vositalarini qo'llash;

- monitoring va nazorat mexanizmlari – kreditlash jarayonida qarzlarning qoplanish monitoringi, banklar va davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvi va moliyaviy barqarorlik indikatorlarini doimiy tahlil qilish;

- normativ-huquqiy bazani rivojlantirish – kreditlashning barqaror mexanizmlarini shakllantirish, qarzlarni qaytarish va moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha standartlarni joriy etish.

Shu nuqtai nazardan, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va kreditlashning samaradorligini oshirish o'zaro chambarchas bog'liq jarayon bo'lib, u banklar, korxonalar va davlat organlari tomonidan kompleks yondashuvni talab qiladi. Real sektor tarmoqlarini moliyalashtirishning optimal strategiyalari joriy etilganda, korxonalarning investitsion faolligi oshadi, iqtisodiy o'sish sur'ati tezlashadi va milliy iqtisodiyot barqarorligi mustahkamlanadi.



1-rasm. Kreditlash jarayonida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar¹

Keltirilgan sxemadan ko'rishimiz mumkinki, kreditlash jarayonida moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar kreditlash jarayonida banklarning va sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun muhim bo'lgan bir qator omillarni o'z ichiga oladi. Ular orasida banklarning moliyaviy holati, risklarni boshqarish tizimi, davlat siyosati va iqtisodiy normativlar, sanoat tarmoqlarining holati, hamda xalqaro moliyaviy bozorlarning o'zgarishi kabi omillar alohida ahamiyatga ega.

Banklarning kapital yetarliligi, likvidlik holati va rentabellik darajasi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy o'rin tutadi. Shuningdek, kredit risklarini samarali boshqarish tizimi kreditlash jarayonini xavfsiz qiladi. Davlat siyosati, normativlar va sanoat tarmoqlarining iqtisodiy holati banklar tomonidan qarz berishda riski boshqarish va kreditlarni taqsimlashda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi, o'zaro bog'liq ravishda, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot davomida real sektor tarmoqlarini kreditlash jarayoni va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kreditlash nafaqat korxonalarning rivojlanish sur'atlariga, balki makroiqtisodiy barqarorlik va tarmoqlararo balansni saqlashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun kreditlashning samaradorligi, risklarni boshqarish mexanizmlari, diversifikatsiya strategiyalari va normativ-huquqiy asoslar birgalikda ishlashini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, bank tizimi va moliyaviy institutlarning roli iqtisodiy o'sish va real sektor tarmoqlarining rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, kreditlash jarayonida moliyaviy barqarorlikni oshirish bir necha yo'nalish orqali amalga oshirilishi mumkin: birinchidan, banklar va moliyaviy institutlar qarz oluvchilarning moliyaviy holatini muntazam monitoring qilish va aktiv-passiv balansini tahlil qilish orqali kredit risklarini samarali boshqarishi lozim. Ikkinchidan, kredit portfelini tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya qilish real sektorning alohida tarmoqlari bo'yicha xavflarni kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Uchinchi muhim yo'nalish – innovatsion moliyaviy vositalar, jumladan, lizing, faktoring, davlat kafolatli kreditlar va boshqa zamonaviy instrumentlarni joriy etish orqali korxonalarning moliyaviy salohiyatini oshirishdir. To'rtinchidan, normativ-huquqiy va institutsional mexanizmlarni rivojlantirish, ya'ni kreditlash standartlari, monitoring tizimlari va bank-davlat hamkorligini kuchaytirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, real sektor tarmoqlarini kreditlash jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Banklar va moliyaviy institutlar faoliyatining samaradorligini oshirish, risklarni baholash va boshqarish tizimlarini rivojlantirish, tarmoq bo'yicha diversifikatsiyani joriy etish, shuningdek, innovatsion moliyaviy instrumentlarni tatbiq etish orqali real sektor tarmoqlarining barqaror rivojlanishi va milliy iqtisodiyotning mustahkamligi ta'minlanishi mumkin.

1 Muallif ishlanmasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A. Demirgüç-Kunt, V. Maksimovic. Funding growth in bank-based and market-based financial systems. *Journal of financial economics*, 2002. 65(3), 337–363.
2. F. Mishkin. *The economics of money, banking and financial markets*. Pearson education. – 2007.
3. J. Stiglitz, A. Weiss. Credit rationing in markets with imperfect information. *American Economic Review*, 1981. 71(3), 393–410. DOI: 10.3386/w0636
4. D. Diamond. Financial intermediation and delegated monitoring. *Review of economic studies*, 1984. 51(3), 393–414. DOI: 10.2307/2297430
5. H. Minsky. *The financial instability hypothesis*. *The jerome levy economics institute working paper No. 74*. – 1992.
6. M. Gertler. Financial structure and industrial performance. *Brookings papers on economic activity*, 1988. 2, 443–492. DOI: 10.2307/2534378
7. B. Bernanke. The Great Moderation. *Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review*, 2004. 1, 5–17.
8. R. Sayfullayev. *Real sektorni kreditlashda ehtiyotkorlik siyosatlari va barqarorlik*. Iqtisodiyot va moliya jurnali, 2020. 3(1), 45–56.
9. S. Shamsiev. *Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda banklar roli*. Moliya va kredit jurnali, 2020. 8(3), 78–90.
10. B. Muhammadiev. *Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda risklarni boshqarish va ehtiyotkorlik siyosatlari*. Iqtisodiy tahlil jurnali, 2020. 7(3), 101–112.
11. S. Khalid. Financial stability and its linkages with credit growth: a comparative analysis of developed and emerging markets. *International journal of finance and economics*, 2018. 23(1), 110–127.
12. L. Zhang. Corporate credit financing and its impact on economic stability. *International journal of economics and finance*, 2012. 5(6), 234–249.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>